

BADIIY MATNDA DIALOGIK NUTQNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

M.Sh.Nuriddinova

Qo'qon davlat universiteti stajyor o'qituvchisi

e-mail:mnuriddinova1992@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20772733>

Annotatsiya

Ushbu maqola badiiy matnlarda dialogik nutqning lingvostilistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — adabiy matnlarda personajlar o'rtasidagi muloqotning stilistik vositalari, ularning emotsional-ekspressiv ifodasi va matn mazmuniga ta'sirini aniqlashdir. Maqolada dialogik nutqning semantik, pragmatik va stilistik jihatlari tahlil qilinadi, shuningdek, turli badiiy janrlardagi (roman, hikoya, dramalar) dialoglarda ishlatiladigan til vositalarining o'ziga xosligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, dialogik nutq, lingvostilistika, pragmatika, emotsional ekspressiya, stilistik vositalar.

Badiiy matnda dialogik nutq muallifning obrazli dunyosini ifodalash, qahramonlar xarakterini ochish va voqealarning dramatik tuzilishini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Lingvostilistik nuqtai nazardan, dialogik nutq nafaqat muloqot funksiyasini bajaradi, balki matnning emotsional-ekspressiv qatlamini boyitadi, personajlar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik munosabatlarni ochib beradi.

So'nggi yillarda badiiy matnlarni lingvostilistik tahlil qilish, ayniqsa dialogik nutqning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb bo'lib qolmoqda. Dialogik nutqning lingvostilistik tahlili matnning stilistik individualizatsiyasini, qahramonlar obrazining dramatik konstruksiyasini va o'quvchi bilan emotsional aloqani tushunishga yordam beradi¹.

Dialogik nutq –ikki yoki bir nechta suhbatdoshlarning o'zaro muloqoti, savol-javoblar, mulohazalar, tasdiq va inkorlar orqali ifodalanadigan nutqiy faoliyatdir. Monologik nutqqa nisbatan, dialogik nutqda qisqalik, tezkorlik, mazmuniy zichlik va hissiylik kuchliroq ko'zga tashlanadi. Qisqa gaplarning ustuvorligi –suhbat jarayonida uzun jumladan ko'ra qisqa, sodda gaplar tez-tez qo'llanadi. Ellipsis (gap bo'laklarini tushirib qoldirish) –suhbatdoshlar bir-birini tezda anglagani sababli gap to'liq shaklda emas, balki qisqa bo'lib aytiladi. Masalan: “Qayerga?” –“Bozorga.”² Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi personajlar o'rtasidagi suhbatni tahlil qilar ekanmiz qahramonlarning emotsional holati bilan birga diologik nutqdagi ellipsis va pragmatik vaziyatni namoyon bo'lishini ko'rish mumkin.

“Tohir sherigi bilan narigi ikki soqchini ichkariga qamab, eshikni qulfladi-da, tog'asining quchog'iga otili.

- Jiyanim, Xudo seni qaydan yetkazdi?
- Boya Samarqanddan chopar bo'lib keldim!
- Bobur mirzo sog'milar?
- Ha, tuzalib qoldilar. Yordamga yetib kelmoqchilar!
- Andijon qo'ldan ketganini bilurlarmi?

¹ Leech, G., & Short, M. (2007). *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. London: Pearson Education.

² Jo'rayeva Sevinch. Dialogik nutqning lingvostilistik xususiyatlari. Fanlararo tafakkur,ilmiy amaliy konferensiya.2025.

– Hali bilmaydilar-da!..

Xo‘ja Abdulla ularga shipshidi:

– Endi jim!”³.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnlarda dialogik nutqning lingvostilistik xususiyatlari bir nechta asosiy funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, dialogik nutq qahramonlarning psixologik va emotsional holatini ochib beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, ellipsis, metaforik iboralar va epitetlar yordamida muallif personajlarning ichki dunyosini, ularning ruhiy holatini o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi.

Ikkinchidan, dialogik nutqning pragmatik funksiyasi muhim ahamiyatga ega. U personajlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni, konflikt yoki kelishuvni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, stilistik vositalar — takroriy iboralar, ekspressiv so‘z birikmalari, savol-javob shaklidagi konstruksiyalar — dialog tarkibida dramatik ritmni yaratadi va o‘quvchining diqqatini tortadi.

Uchinchidan, turli badiiy janrlarda dialogik nutqning ishlatilishida o‘ziga xos stilistik farqlar kuzatiladi. Masalan, romanlarda dialog qahramonlarning psixologik holatini chuqurroq ochish uchun kengaytirilgan, batafsil va metaforik boyitilgan bo‘lsa, hikoya va drama matnlarida u qisqaroq, lekin dramatik ta’sir kuchi yuqori bo‘lgan konstruksiyalardan foydalaniladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, dialogik nutqning lingvostilistik tahlili matnni o‘quvchi ongida turli darajada emotsional va estetik hissiyot yaratish imkonini beradi. Bu esa badiiy matnni faqat hikoya vositasi sifatida emas, balki lingvistik va stilistik vosita sifatida ham o‘rganishga sabab bo‘ladi.

XULOSA. Badiiy matnda dialogik nutq lingvostilistik jihatdan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlanadi. U nafaqat qahramonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi, balki matnning emotsional-ekspressiv qatlamini boyituvchi, pragmatik vazifalarni amalga oshiruvchi va stilistik individualizatsiyani ta’minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Leech, G., & Short, M. (2007). Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. London: Pearson Education.
2. Jo‘rayeva Sevinch. Dialogik nutqning lingvostilistik xususiyatlari. Fanlararo tafakkur, ilmiy amaliy konferensiya. 2025.
3. Pirmqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” Yangi asr avlodi. Toshkent. 2015

³ Pirmqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” Yangi asr avlodi. Toshkent. 2015